O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ANDIJON VILOYATI ANDIJON SHAHAR HOKIMINING
QARORI

710000 Andijon shahri Ergash Ashurov ko’chasi 17-uy. Tel: (74) 228-31-35

2024 - yil 5 - fevral 19-1-29-Q/24 Andijon shahar hokimligi

Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 09-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Nizomi, Ichki ishlar Vazirining 2003-yil 19-fevraldagi 56-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi yo‘l-harakati xavfsizligi bo‘linmasining 2023-yil 19-dekabrdagi 30/18-180-sonli xati ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunning 6-, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha yuridik shaxslarning transport vositalarini quyidagi bosqichlarda:

Birinchi bosqich 1 martdan - 30 iyungacha

Ikkinchi bosqich 1 sentyabrdan - 31 oktyabrgacha

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi qaror qabul qilingan kundan boshlab 31-avgustgacha bo‘lgan muddatlarda o‘tkazilishi belgilab qo‘yilsin.

2. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi tarkibi 1-ilovaga va texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi

Yo‘l-harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i (B.Azimjonov)ga tashkilot, muassasa, avtokorxona va firmalarga qarashli transport vositalarini belgilangan muddatlarda texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Andijon viloyat Transport boshqarmasi shahar va tumanlar sektori bosh inspektoriga alohida transport xizmati ko‘rsatuvchi transport korxonalariga transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishga amaliy yordam ko‘rsatish topshirilsin.

5. “Andijonnoma” va “Andijanskaya pravda” gazetalari bosh muharririga mazkur qaror matnini matbuotda e’lon qilish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Komissiya ishiga jalb etilgan barcha xodimlarning asosiy ish joylaridagi ish o‘rinlari, oylik maoshlari va boshqa imtiyozlari saqlansin.

8. Ushbu qaror shahar hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari F.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Andijon shahar hokimi **G.Abduraxmanov**

Andijon shahar hokimining
2024-yil 5-fevraldagi
19-1-29-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Shahar hududida joylashgan korxona, tashkilot, muassasa, kichik korxona va firmalarga qarashli transport vositalarining majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi

T A R K I B I

B.Azimjonov -Shahar IIOFMB Yo‘l-harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i komissiya raisi

B. Gaynazarov - Shahar IIOFMB Yo‘l xarakati xavfsizligi bo‘limi katta inspektori komissiya raisi o‘rinbosari

Komissiya a’zolari

A.Oxunov - Shahar IIOFMB Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi texnika nazorati inspektori

M.Igamberdiev - Shahar mudofa ishlari bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari

A .Asranov - Andijon viloyati Transport boshqarmasi boshlig‘i

G. Razzaqov - Andijon magistral elektr tarmoqlari filiali

A.Karimov - “Andijon Suv Maxsus Tamir” MChJ texnik muxandisi

S.Zaxidov - Andijon shahar Avtohavaskorlar ko‘ngilli jamiyati raisi